

**BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARIYBYU INFORMATIKA
O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATI MAZMUNI****Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10920756>


Annotatsiya. Ushbu maqoladi oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, bo'lajak informatika o'qituvshilarining tashkiliy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, informatika o'qituvshisining kasbiy tayyorgarligi mazmuni, bo'lajak pedagoglarda nafaqat fanga doir kompetensiyalarni, balki tashkiliy-pedagogik kompetentlikni tarkib toptirish, pedagoglarda kasbiy tajriba ta'sirida takomillashtiriladigan komponentlar haqida nazariy ma'lumotlar yoritilgan va pedagogik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro standartlar, yuqori malakali, kreativ, tizimli, informatika o'qituvchisi, tashkiliy-pedagogik kompetentlik, kompetensiya, kasbiy tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня охвата высшим образованием, подготовки высококвалифицированных, креативных и системно мыслящих кадров, способных самостоятельно принимать решения на основе международных стандартов, развития организационно-педагогической компетентности будущих учителей информатики, содержания профессиональной подготовки учителя информатики, формирования у будущих педагогов не только предметных компетенций, но и организационно-педагогической компетентности., освещаются теоретические данные о компонентах, которые совершенствуются под влиянием профессионального опыта педагогов, излагаются педагогические рекомендации.

Ключевые слова: международные стандарты, высокая квалификация, креативность, системность, учитель информатики, организационно-педагогическая компетентность, компетентность, профессиональный опыт.

Annotation. This article will increase the level of coverage with higher education, prepare highly qualified, creatively and systematically thinking, independent decision-making personnel based on international standards, develop organizational and pedagogical competence of future Informatics teachers, the content of professional training of Informatics teachers, find in



future educators not only competencies in science, but also organizational and pedagogical competence, in educators, theoretical information about the components to be improved under the influence of professional experience is covered and pedagogical recommendations are described.

Keywords: international standards, highly qualified, creative, systematic, Informatics teacher, organizational and pedagogical competence, competence, professional experience.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, masofali ta'lim olish mazmunining takomillashtirilishi, pedagogik jarayonni tashkil etishda Informatika sohasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda bo'lajak o'qituvchi shaxsining informatik kasbiy tayyorgarligining tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining tashkiliy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunini aniqlashtirishni shuningdek, respublikamizda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy asoslarni tahlil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlarining bosh huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan IX bob 42-moddasida "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi"[1], deya ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, "Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni xolis yoritish bilan birga, joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da'vat etib, undab kelayotgani alohida ta'kidlab o'tilganligi, shuningdek, so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va bloggerlarning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yanada kuchaytirilishi"[151] Respublikamizda informatika o'qituvchilarini tayyorlash, ularni kasbiy rivojlantirishning ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.



2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish [2].

Ushbu ustuvor yo'nalishlar bo'lajak pedagoglarda nafaqat fanga doir kompetensiyalarni, balki tashkiliy-pedagogik kompetentlikni tarkib toptirishning zarurligini ham ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ularda tashkiliy-



pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi strategik maqsadlar belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash [6].

Ushbu strategik maqsadlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, kasbiy tayyorgarligi mazmuniga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xalqaro standartlar asosida malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash kabilarni o'zida ifodalashi tadqiqot ishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar etishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda. 2020-2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"da "Umumta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish sifatini oshirish; Raqamli




texnologiyalarni o'qitish hududiy o'quv markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish; Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida o'qitish sifatini oshirish; Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida yoshlarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish va olimlarni rag'batlantirish" [7] kabi sohalarga e'tibor qaratilishi bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy tayyorgarligi mazmunining ahamiyatligini ifodalaydi.

Yuqorida bayon etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili ekanligi haqidagi fikrga kelindi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mazmunini o'rganish natijasida uning tarmoqlangan tuzilishga egaligi, faoliyat turlari va tegishli shaxsiy xususiyatlarni aks ettirishi ma'lum bo'ldi (1.1-rasmga qarang).

Qidiruv faoliyati kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lib, u ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, natijada yangi ilmiy bilimlar "tug'ilishi" mumkin.



1.1-Rasm. Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati tuzilishi

Konstruktiv faoliyat qidiruv faoliyatining yakuniy bosqichi bo'lib, yangiliklarni izlash natijasida texnik obyektlarni qurish (tashkil etish)ni o'z ichiga oladi.

Loyihalash faoliyati o'rganilayotgan hodisalarning dastlabki shartlarini, omillarini va xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish, va modelni yaratishdan iborat.

Analitik faoliyat dizayn faoliyatidan keyingi faoliyat sifatida strukturani baholash va tushunish, munosabatlarni aniqlash, obyektlarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, kasbiy mahorat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Kommunikativ faoliyat muloqot jarayonida kerakli ma'lumotlarni olishdan iborat bo'lib, u muloqot, axborot almashish, tushunish uchun so'z yasashdan iboratdir[34].

Ijtimoiy faoliyat oldingi faoliyatning ijtimoiy natijalarini baholashni va individual bosqichlarni mumkin bo'lgan moslashtirishni ta'minlaydi. U mutaxassisning umume'tirof etilgan qadriyatlar, huquq, davlat va jamiyatga munosabatini qamrab oladi, shuningdek, ijtimoiy tajribani o'z qadriyatlari va yo'nalishlariga aylantirish jarayoniga hissa qo'shadi.

Fikrlash faoliyati o'z fikrlarini rivojlantirish va mavjud qarashlarni qo'shimcha ravishda o'zgartirish jarayonini o'z ichiga olib reproduktiv bilimlarni to'ldiradi[34].

Texnologik faoliyat – bu yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ushbu jarayonni rag'batlantirish, nazorat qilish va tuzatish uchun mo'ljallangan texnologiyani amalga oshirish bo'yicha faoliyatni nazarda tutadi[48,133].

Bo'lajak informatika o'qituvchisining operatsion faoliyati fanlar bo'yicha kasbiy yo'naltirilgan dasturiy ta'minot tizimlarini saqlash, o'zgartirish va moslashtirish jarayonini ifodalaydi.

Shuningdek, ilmiy-nazariy adabiyotlar tahliliga ko'ra, bo'lajak informatika o'qituvchisining fanga oid faoliyati quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlandi: fan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan axborot jarayonlari; fan mavzusi doirasida yuzaga keladigan hodisalar, funksional jarayonlar, axborot va resurslar oqimlari; kompyuter texnologiyalarini joriy etishni talab qiluvchi sohadagi faoliyatning yangi yo'nalishlari; professional yo'naltirilgan dasturiy paketlar[31, 10-12].

Bo'lajak informatika o'qituvchisining yuqorida keltirilgan faoliyat sohalari muayyan ko'nikma va malakalarni talab etib, ongli maqsadli kasbiy faoliyatida



o'quv jarayonida shakllanadigan, so'ngra kasbiy tajriba ta'sirida takomillashtiriladigan komponentlar ajralib turadi. Bu komponentlar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati[111, 26].

Ko'nikmalar – bu jarayon bo'lib, uning davomida bilish, mashq qilish va orttirilgan tajriba asosida xatti-harakatlar va faoliyatning yangi shakllari paydo bo'ladi, ilgari olinganlari o'zgaradi [91,15].

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli[91, 26].

Ye.P.Ilyin tomonidan berilgan malakalarning talqinida “mahorat” tushunchasi ikki jihat – faollik va operativlik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Birinchisi, har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – harakatlar, operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida izohlanadi[53].

Psixologik-pedagogik adabiyotlar asosida mualliflar oliy ta'lim muassasalarida malakalarning turlicha tasnifini beradilar. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib, bo'lajak informatika o'qituvchisiga xos bo'lgan ko'nikmalar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz:

1) gnostik ko'nikmalar - ishlab chiqarish bilimlarini o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlash, undagi asosiy, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar;

2) konstruktiv-texnik ko'nikmalar – integrativ dizaynga oid ko'nikmalar;

3) umumiy pedagogik ko'nikmalar – sxemalarni o'qish va tuzish, hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish, informatika va axborot texnologiyalari kursining mazmun yo'nalishlarini o'rganishning uslubiy xususiyatlarini aniqlash;

4) texnologik ko'nikmalar – uslubiy vaziyatni tahlil qilish, texnologik jarayonni rejalashtirish va oqilona tashkil etish, texnik qurilmalarni ishlatish bo'yicha pedagogik mahorat;

5) ishlab chiqarish va operativ ko'nikmalar – turdosh kasblar bo'yicha umumiy mehnat ko'nikmalarini anglatadi;

6) maxsus ko'nikmalar – milliy iqtisodiyotning istalgan tarmog'i doirasidagi mutaxassislik bo'yicha ko'nikmalar[85, 25-26].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati hamda fanga oid faoliyati yuqorida keltirilgan ko'nikmalar bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lib, bo'lajak informatika o'qituvchisining ko'rib



chiqilayotgan faoliyat turlari va ko'nikmalari kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan mutaxassis modelini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, so'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar, tadqiqotchilar tomonidan bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning mazmuni, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy talablar uning mazmuni muammosining tadqiq etilishiga e'tibor qaratila boshlandi.

Ba'zi mualliflar informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmuniga o'zgartirish kiritishni taklif qilmoqdalar. Jumladan, V.P.Julanova o'quv jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilarni doimiy talabalik pozitsiyasida "yashashi", bilim olishda faol ishtirok etishi uchun mashg'ulot vaqtining ko'p qismini mustaqil, guruhli va tarmoq ishlariga ajratishni taklif etadi[42].

O.V.Sadikova "Informatika o'qituvchisining fanga oid tayyorgarligining hozirgi amaliyoti "Informatika" fanining barcha tarkibiy qismlarini qamrab olmaydi, fanining hozirgi bosqichdagi rivojlanish darajasini to'liq aks ettirmaydi",-deb hisoblaydi. Natijada, texnologiyaning rivojlanish darajasi va jamiyatda qo'llanilish ko'lamini aks ettiruvchi ixtisoslashtirilgan kurslarni loyihalashtirishga zaruratning yuzaga kelayotganligiga e'tibor qaratadi[94, 280-283].

T.A.Shastun tadqiqotlarida zamonaviy AKT vositalariga ehtiyojning doimiy ortib borishi, informatika o'qituvchisining maxsus-texnologik kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarning murakkablashishi va ularni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi ta'kidlanadi[115, 83-93].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni qayd etib o'tish lozimki, bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili sifatida quyidagi jihatlarni alohida tadqiq etishni taqozo etadi:

- 1) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;
- 2) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- 4) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;
- 5) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik



kompetentlikning rivojlanganligini tashxis etish vositalarini aniqlashtirish va samaradorlikni baholash. **Annotatsiya.** Ushbu maqoladi oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, bo'lajak informatika o'qituvshilarining tashkiliy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, informatika o'qituvshisining kasbiy tayyorgarligi mazmuni, bo'lajak pedagoglarda nafaqat fanga doir kompetensiyalarni, balki tashkiliy-pedagogik kompetentlikni tarkib toptirish, pedagoglarda kasbiy tajriba ta'sirida takomillashtiriladigan komponentlar haqida nazariy ma'lumotlar yoritilgan va pedagogik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro standartlar, yuqori malakali, kreativ, tizimli, informatika o'qituvchisi, tashkiliy-pedagogik kompetentlik, kompetensiya, kasbiy tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня охвата высшим образованием, подготовки высококвалифицированных, креативных и системно мыслящих кадров, способных самостоятельно принимать решения на основе международных стандартов, развития организационно-педагогической компетентности будущих учителей информатики, содержания профессиональной подготовки учителя информатики, формирования у будущих педагогов не только предметных компетенций, но и организационно-педагогической компетентности., освещаются теоретические данные о компонентах, которые совершенствуются под влиянием профессионального опыта педагогов, излагаются педагогические рекомендации.

Ключевые слова: международные стандарты, высокая квалификация, креативность, системность, учитель информатики, организационно-педагогическая компетентность, компетентность, профессиональный опыт.

Annotation. This article will increase the level of coverage with higher education, prepare highly qualified, creatively and systematically thinking, independent decision-making personnel based on international standards, develop organizational and pedagogical competence of future Informatics teachers, the content of professional training of Informatics teachers, find in future educators not only competencies in science, but also organizational and pedagogical competence, in educators, theoretical information about the components to be improved under the influence of professional experience is covered and pedagogical recommendations are described.



Keywords: international standards, highly qualified, creative, systematic, Informatics teacher, organizational and pedagogical competence, competence, professional experience.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, masofali ta'lim olish mazmunining takomillashtirilishi, pedagogik jarayonni tashkil etishda Informatika sohasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishda bo'lajak o'qituvchi shaxsining informatik kasbiy tayyorgarligining tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining tashkiliy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunini aniqlashtirishni shuningdek, respublikamizda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy asoslarni tahlil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlarining bosh huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlangan IX bob 42-moddasida "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi"[1], deya ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, "Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarni xolis yoritish bilan birga, joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da'vat etib, undab kelayotgani alohida ta'kidlab o'tilganligi, shuningdek, so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va bloggerlarning erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yanada kuchaytirilishi"[151] Respublikamizda informatika o'qituvchilarini tayyorlash, ularni kasbiy rivojlantirishning ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berildi:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;



yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish [2].

Ushbu ustuvor yo'nalishlar bo'lajak pedagoglarda nafaqat fanga doir kompetensiyalarni, balki tashkiliy-pedagogik kompetentlikni tarkib toptirishning zarurligini ham ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da bo'lajak informatika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ularda tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi strategik maqsadlar belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;



oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash [6].

Ushbu strategik maqsadlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, kasbiy tayyorgarligi mazmuniga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, xalqaro standartlar asosida malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash kabilarni o'zida ifodalashi tadqiqot ishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarni o'qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar etishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda. 2020-2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"da "Umumta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish sifatini oshirish; Raqamli texnologiyalarni o'qitish hududiy o'quv markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish; Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida o'qitish sifatini oshirish; Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida yoshlarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish va olimlarni rag'batlantirish" [7] kabi sohalarga e'tibor qaratilishi bo'lajak




informatika o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy tayyorgarligi mazmunining ahamiyatligini ifodalaydi.

Yuqorida bayon etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili ekanligi haqidagi fikrga kelindi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati mazmunini o'rganish natijasida uning tarmoqlangan tuzilishga egaligi, faoliyat turlari va tegishli shaxsiy xususiyatlarni aks ettirishi ma'lum bo'ldi (1.1-rasmga qarang).

Qidiruv faoliyati kasbiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashdan iborat bo'lib, u ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, natijada yangi ilmiy bilimlar "tug'ilishi" mumkin.



1.1-Rasm. Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati tuzilishi

Konstruktiv faoliyat qidiruv faoliyatining yakuniy bosqichi bo'lib, yangiliklarni izlash natijasida texnik obyektlarni qurish (tashkil etish)ni o'z ichiga oladi.



Loyihalash faoliyati o'rganilayotgan hodisalarning dastlabki shartlarini, omillarini va xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish, va modelni yaratishdan iborat.

Analitik faoliyat dizayn faoliyatidan keyingi faoliyat sifatida strukturani baholash va tushunish, munosabatlarni aniqlash, obyektlarning individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, kasbiy mahorat darajasini aniqlash imkonini beradi.

Kommunikativ faoliyat muloqot jarayonida kerakli ma'lumotlarni olishdan iborat bo'lib, u muloqot, axborot almashish, tushunish uchun so'z yasashdan iboratdir[34].

Ijtimoiy faoliyat oldingi faoliyatning ijtimoiy natijalarini baholashni va individual bosqichlarni mumkin bo'lgan moslashtirishni ta'minlaydi. U mutaxassisning umume'tirof etilgan qadriyatlar, huquq, davlat va jamiyatga munosabatini qamrab oladi, shuningdek, ijtimoiy tajribani o'z qadriyatlari va yo'nalishlariga aylantirish jarayoniga hissa qo'shadi.

Fikrlash faoliyati o'z fikrlarini rivojlantirish va mavjud qarashlarni qo'shimcha ravishda o'zgartirish jarayonini o'z ichiga olib reproduktiv bilimlarni to'ldiradi[34].

Texnologik faoliyat – bu yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ushbu jarayonni rag'batlantirish, nazorat qilish va tuzatish uchun mo'ljallangan texnologiyani amalga oshirish bo'yicha faoliyatni nazarda tutadi[48,133].

Bo'lajak informatika o'qituvchisining operatsion faoliyati fanlar bo'yicha kasbiy yo'naltirilgan dasturiy ta'minot tizimlarini saqlash, o'zgartirish va moslashtirish jarayonini ifodalaydi.

Shuningdek, ilmiy-nazariy adabiyotlar tahliliga ko'ra, bo'lajak informatika o'qituvchisining fanga oid faoliyati quyidagilarni o'z ichiga olishi aniqlandi: fan sohasining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan axborot jarayonlari; fan mavzusi doirasida yuzaga keladigan hodisalar, funksional jarayonlar, axborot va resurslar oqimlari; kompyuter texnologiyalarini joriy etishni talab qiluvchi sohadagi faoliyatning yangi yo'nalishlari; professional yo'naltirilgan dasturiy paketlar[31, 10-12].

Bo'lajak informatika o'qituvchisining yuqorida keltirilgan faoliyat sohalari muayyan ko'nikma va malakalarni talab etib, ongli maqsadli kasbiy faoliyatida o'quv jarayonida shakllanadigan, so'ngra kasbiy tajriba ta'sirida takomillashtiriladigan komponentlar ajralib turadi. Bu komponentlar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati[111, 26].



Ko'nikmalar – bu jarayon bo'lib, uning davomida bilish, mashq qilish va orttirilgan tajriba asosida xatti-harakatlar va faoliyatning yangi shakllari paydo bo'ladi, ilgari olinganlari o'zgaradi [91,15].

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli[91, 26].

Ye.P.Ilyin tomonidan berilgan malakalarning talqinida “mahorat” tushunchasi ikki jihat – faollik va operativlik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Birinchisi, har qanday faoliyatni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – harakatlar, operatsiyalarni bajarish qobiliyati sifatida izohlanadi[53].

Psixologik-pedagogik adabiyotlar asosida mualliflar oliy ta'lim muassasalarida malakalarning turlicha tasnifini beradilar. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib, bo'lajak informatika o'qituvchisiga xos bo'lgan ko'nikmalar guruhiga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz:

1) gnostik ko'nikmalar - ishlab chiqarish bilimlarini o'zlashtirish, yangi ma'lumotlarni olishni ta'minlash, undagi asosiy, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish, ilg'or tajribalarni umumlashtirish va tizimlashtirish sohasidagi kognitiv ko'nikmalar;

2) konstruktiv-texnik ko'nikmalar – integrativ dizaynga oid ko'nikmalar;

3) umumiy pedagogik ko'nikmalar – sxemalarni o'qish va tuzish, hisob-kitob va grafik ishlarni bajarish, informatika va axborot texnologiyalari kursining mazmun yo'nalishlarini o'rganishning uslubiy xususiyatlarini aniqlash;

4) texnologik ko'nikmalar – uslubiy vaziyatni tahlil qilish, texnologik jarayonni rejalashtirish va oqilona tashkil etish, texnik qurilmalarni ishlatish bo'yicha pedagogik mahorat;

5) ishlab chiqarish va operativ ko'nikmalar – turdosh kasblar bo'yicha umumiy mehnat ko'nikmalarini anglatadi;

6) maxsus ko'nikmalar – milliy iqtisodiyotning istalgan tarmog'i doirasidagi mutaxassislik bo'yicha ko'nikmalar[85, 25-26].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati hamda fanga oid faoliyati yuqorida keltirilgan ko'nikmalar bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lib, bo'lajak informatika o'qituvchisining ko'rib chiqilayotgan faoliyat turlari va ko'nikmalari kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan mutaxassis modelini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.



Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, so'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar, tadqiqotchilar tomonidan bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlashning mazmuni, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy talablar uning mazmuni muammosining tadqiq etilishiga e'tibor qaratila boshlandi.

Ba'zi mualliflar informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmuniga o'zgartirish kiritishni taklif qilmoqdalar. Jumladan, V.P.Julanova o'quv jarayonini tashkil etishda ta'lim oluvchilarni doimiy talabalik pozitsiyasida "yashashi", bilim olishda faol ishtirok etishi uchun mashg'ulot vaqtining ko'p qismini mustaqil, guruhli va tarmoq ishlariga ajratishni taklif etadi[42].

O.V.Sadikova "Informatika o'qituvchisining fanga oid tayyorgarligining hozirgi amaliyoti "Informatika" fanining barcha tarkibiy qismlarini qamrab olmaydi, fanining hozirgi bosqichdagi rivojlanish darajasini to'liq aks ettirmaydi",-deb hisoblaydi. Natijada, texnologiyaning rivojlanish darajasi va jamiyatda qo'llanilish ko'lamini aks ettiruvchi ixtisoslashtirilgan kurslarni loyihalashtirishga zaruratning yuzaga kelayotganligiga e'tibor qaratadi[94, 280-283].

T.A.Shastun tadqiqotlarida zamonaviy AKT vositalariga ehtiyojning doimiy ortib borishi, informatika o'qituvchisining maxsus-texnologik kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarning murakkablashishi va ularni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi ta'kidlanadi[115, 83-93].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni qayd etib o'tish lozimki, bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim omili sifatida quyidagi jihatlarni alohida tadqiq etishni taqozo etadi:

- 1) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;
- 2) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- 4) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish;
- 5) bo'lajak informatika o'qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikning rivojlanganligini tashxis etish vositalarini aniqlashtirish va samaradorlikni baholash.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukhlisov S.S. Sectors Using, Necessarity and Benefits of Green Texnologies //“Indonesian Journal of Innovation Studies” (DOI: 10.21070/ijins.v18i.663) Vol. 18, April 2022.
2. Muxlisov S.S., R.U.Kuchkarbayev, Xazratov F.X. Ta’limda axborot texnologiyalari. O’quv qo’llanma. Nashr ruxsatnomasi 257-014. Buxoro: Kamolot, 2022, 170 b.
3. SDG – Sustainable Development Goals, Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development, <https://sdgs.un.org/goals>.
4. Siddiqov B.S., Mexmonaliyev Sh.N. Pedagogik amaliyotning bo’lajak o’qituvchining kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o’rni: Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3. – 2022. – 12 b.
5. Tolipov O’Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko’nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari // Monografiya. – T.: Fan, 2004. – 73-80 bet.
6. Tursunov S.T., Daniyarov B.X., Umaraliyeva M.A., Shodmonova Sh.S. O’qituvchining kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – T.: Sano-standart, 2012. – 172 b.

